

So'x tumani maktablari zamonaviy sharoitlar hamda yuqori ta'lim sifati sari odimlamoqda



So'x tumani maktablari zamonaviy sharoitlar hamda yuqori ta'lim sifati sari odimlamoqda

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, So'x tumanida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan ham tanishish jarayonida tumandagi kapital ta'mirlanayotgan 16-umumta'lim maktabini borib ko'rdi.

Gulxan MFY hududida joylashgan ushbu ta'lim dargohi 50 yildan ortiq davrda ilk bor ta'mirlanmoqda. Qurilish-ta'mirlash ishlariga 900 million so'mga yaqin mablag' ajratilgan. Viloyat hokimi o'rganish jarayonida maktab jamoasi bilan suhbatlashib, zamonaviy maktabda ta'lim sifati ham oshirish dolzarblik kasb etishini ta'kidladi.

Xayrullo Bozorov, viloyat moliya bosh boshqarmasiga maktabni to'la zamonaviy jihozlash bo'yicha hisob-kitoblarni ko'rib chiqib, mablag' ajratilishini ta'minlashga ko'rsatma berdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-02-12 18:18:47